

PSIXOLOGIYA ILIMLARI

MAKTAB O'QUVCHILARI TAFAKKUR OPERATSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

M.M.Djolimbetova – *psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

ФОРМИРОВАНИЯ МЫСЛИТЕЛЬНЫХ ОПЕРАЦИЙ У ШКОЛЬНИКОВ ПСИХИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ

М.М.Джолымбетова – *доктор философии психологических наук*
Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

FORMATION OF THINKING OPERATIONS OF SCHOOLCHILDREN PSYCHOLOGICAL FEATURES

M.M.Djolimbetova – *doctor of philosophy in psychology*
Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

Tayanch so'zlar: maktab o'quvchilari psixologiyasi, tafakkur operatsiyalarining rivojlanishi, erkin fikrlash, bilish jarayonining rivojlanishiga ijtimoiy omillarning psixologik ta'siri

Rezyume. Ushbu maqolada maktab o'quvchilarini aqliy rivojlantirishning psixologik xususiyatlari, tafakkur operatsiyalarining rivojlanishi va fikr erkinligi, tafakkur haqida ma'lumotlar keltirilgan, shuningdek, tafakkur jarayonining turli adabiyotlarda o'rganilganligi va tahlil qilinganligi keltirilgan.

Ключевые слова: психология школьников, развитие мыслительных операций, свободное мышление, психологическое влияние социальных факторов на развитие познавательного процесса.

Резюме. В статье представлены сведения о психологических особенностях умственного развития школьников, развитии мыслительных операций и свободы мысли, а также изучение и анализ процесса мышления в различной литературе.

Key words: psychology of schoolchildren, development of mental operations, free thinking, psychological influence of social factors on the development of the cognitive process.

Summary. The state presents information on the psychological characteristics of schoolchildren's mental development, the development of mental processes and freedom of thought, as well as the study and analysis of the thought process in various literature.

Kirish. Maktab o'quvchilari bilimini rivojlantirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan so'nggi yillarda bir nechta muhim farmon va qarorlar qabul qilingan. Ular umumta'lim tizimida sifatni oshirish, innovatsion usullarni joriy etish va o'quvchilarning tafakkuri, bilimi, ijodiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan.

Asosan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida»gi PF-134-sonli farmonida (11.05.2022 yil) - o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetentsiyalarini xalqaro mezonlarga mos ravishda rivojlantirish, yangi pedagogik texnologiyalar, fanlararo yondashuvlar asosida dars jarayonlarini takomillashtirish, maktablarni zamonaviy o'quv-uslubiy bazalar bilan ta'minlash va xalqaro baholash tizimlariga (PISA, TIMSS va PIRLS) tayyorgarlik ko'rish orqali o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish kabi vazifalar maktab o'quvchilarining bilimini chuqur va keng rivojlantirishga, fikrlash qobiliyatini kuchaytirishga, ta'lim mazmunini xalqaro standartlarga moslashtirishga qaratilgan [1].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Aqliy qobiliyatlarning individual asoslari o'rtasidagi tafovutlar kabi uning yosh taraqqiyoti bilan bog'liq tafovutlarining mavjudligi ham shubhasizdir. Ya'ni inson psixikasining ontogenezdagi taraqqiyoti bir-biri bilan bog'langan bir rivojlanish bosqichidan ikkinchi sifat jihatdan farq qiluvchi bosqichga o'tish jarayonini ifodalaydi. Bu o'zgaruvchan davrlar, taraqqiyotning bosqichliligi – uzluksiz jarayonni shartli bo'lish natijasi emas, balki bu obyektiv reallikdir.

Hozirgi davrda tafakkurning predmeti yuzasidan psixologiyada turli tuman qarash va ta'riflar mavjuddir. Ularni ayrimlariga xarakteristika berib o'tamiz. S.L.Rubinshteyn nazariyasiga binoan, tafakkurni psixologik jihatdan o'rganishning asosiy predmeti jarayon, faoliyat tariqasida namoyon bo'lishdir. Muallif tafakkur operatsiyalari, shakllarini shakllantirishda jarayon, muammoli vaziyatni hal qilishda esa fikr yuritish faoliyati sifatida vujudga kelishini chuqur tahlil qilib beradi. S.L.Rubinshteyn tafakkur to'g'risidagi g'oyani rivojlantirib, uni subyekt faolligining paydo bo'lishi deb atadi.

A.N.Leontev tafakkur psixologiyasi predmeti yuzasidan mulohaza yuritib, tafakkurni turli ko'rinishlarga ajratadi, fikr yuritish faoliyati ekanligini tan oladi, lekin uni predmetli - amaliy faoliyat deb nomlaydi. Shuning bilan birga tafakkurning strukturasi, fikr yuritish motivatsiyasi to'g'risida nazariy - metodologik muammolarni o'rtaga tashlaydi.

P.Ya.Gal'perin fikriga ko'ra, tafakkur – bu orientirlash tadqiqot faoliyati, orientirovka jarayonidir, ya'ni orientirovka jarayoni, orientirovka faoliyati. Muallif psixologiya fani intellektual masalalarini yechishda subyektning tafakkurga orientirovka qilish jarayonini o'rganishdan iborat deb tushuntiradi. P.Ya.Gal'perin tafakkurning boshqa jihatlarini o'zining aqliy harakatlarni bosqichli shakllantirish nazariyasidan kelib chiqqan holda yoritishga intiladi.

A.V.Brushlinskiy tadqiqotlarida tafakkurning muhim yangilikni qidirish va ochish, gipoteza va nazariyalarni bashorat qilish, oldindan payqash xususiyatlari alohida ta'kidlab o'tiladi. Yuqoridagi mualliflardan farqli o'laroq A.V.Brushlinskiy tafakkurning umumlashtirib, bilvosita aks

ettirishdan tashqari muhim yangilikni izlash va ochish, oldindan bashorat qilish xususiyatlari mavjudligini dalillab ko'rsatadi [2:47].

Aqliy qobiliyatning yoshga bog'liq xolda rivojlanishi masalasi qator psixologlar tomonidan qayd etilgan. Jumladan, Chet el psixologlaridan J.Piaje, Dj.Kelli, A.Vallon, Rus psixologlaridan L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev, L.I.Bojovich, V.A.Muxina, E.A.Golubeva, N.S.Leytes, o'zbek psixologlaridan M.G.Davletshin E.G'.G'oziev, B.R.Qodirov, Z.T.Nishanova va boshqalar tafakkur va aqliy qobiliyatning yoshga bog'liqligini turli yo'nalishlarda o'rganganlar. Ammo ta'lim amaliyotida bu muammo chuqur tahlil etilib, turli yoshda o'quvchilarning intellektual salohiyatini oshirib borish bo'yicha ishlarni talab darajasida hal etilgan deb ayta olmaymiz. Aqliy qobiliyatlarning yoshga bog'liq holda, rivojlanishi qonuniyatlarini bilish turli yosh davrlarda tafakkur operatsiyalarini maqsadga muvofiq xolda shakllantirish imkoniyatlarini ochadi. Xususan, taniqli o'zbek psixologi E.G'.G'ozievning «Tafakkur psixologiyasi» nomli asarida bu boradagi tadqiqotlar keng yoritilgan. Yaniy, har bir yosh davr tafakkur va aqliy qobiliyatning namoyon bo'lishi, shakllanishi va rivojlanishida o'ziga xos obyektiv va subyektiv shart-sharoitlarni yuzaga keltiradi.

Bolaning nutqni egallagunga qadar bajaradigan aqliy harakatlari tafakkurning tabiiy va ijtimoiy-tarixiy shartlangan holda o'sishini ifodalasa, nutqni egallagandan so'ng sodir bo'ladigan aqliy o'zgarishlar va aqliy o'sish ijtimoiy shart-sharoit hamda maqsadga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya maxsuli ekanligini xarakterlaydi [3:42].

Mashxur rus psixologi L.S.Vigotskiy ko'rsatib o'tganidek, idrok va xotira maktab ta'limi boshlanishi

oldidan anchagina taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan bo'ladi, kichik maktab yoshidagi davrda esa intellekt jadal taraqqiy etadi. Tafakkurning rivojlanishi idrok va xotirani sifat jihatdan qayta o'zgarishga, ularni ixtiyoriy va boshqariladigan jarayonga aylanishga olib keladi. Vigotskiyning ko'rsatishicha, maktab yoshiga bola idrok va xotira funktsiyasiga nisbatan kuchsiz intellekt funktsiyasi bilan qadam qo'yadi. Biroq intellekt shunday rivojlanadiki, na xotira va na idrok bunday rivojlanishni o'z boshidan kechirmaydi.

Bu yerda ta'lim mazmuni va motivlarining stimullashtiruvchi roli, o'qituvchining ta'lim-tarbiya protsessini tashkil qiluvchilik roli xususan yaqqol ko'zga tashlanadi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, o'quv jarayoni har xil yo'sinda tashkil qilinganda, ta'lim mazmuni o'zgartirilganda, o'qitishning turli usullariga qarab kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning tafakkuri nihoyatda xilma-xil xarakteristikaga ega bo'lishi mumkin [4:265].

Asosan, kichik maktab o'quvchilarida tafakkur operatsiyalari rivojlanishi konkret narsa va hodisalarning ko'rgazmali xususiyatlari va sifatlariga asoslangan holda kechadi, ya'ni bu davrda o'quvchilar tafakkuri konkret operatsiyalar bosqichida turadi.

«Tafakkur – ijtimoiy – sababiy, nutq bilan chambarchas bog'liq muhim bir yangilik qidirish va ochishdan iborat psixik jarayondir, boshqacha qilib aytganda, tafakkur voqelikni analiz va sintez qilishda uni bevosita va umumlashtirib aks ettirish jarayonidir» Shuning uchun ham biz, ko'rib chiqqan maktab o'quvchilarning tafakkur operatsiyalarini shakllantirish bo'yicha turli xil yoshdagi o'quvchilarga mashqlar o'tkazganimizda ularda bir qancha o'zgarishlar bor ekanligi aniqlandi [5:112].

Yoshi	Analiz va sintez	Taqqoslash	Umumlashtirish	Klassifikatsiyalash
6-yoshli	Qismlarga ajratishda bir qancha xatolarga yo'l qo'ydi, mashqlarni bajargisi kelmadi, bo'laklardan narsa yasashda qiynaldi, vaqt ko'p sarflandi, qarama-qarshi so'zni ayta olmadi, rasmda nima yetishmaganligini ayta oldi,	Taqqoslash uchun berilgan topshiriqlarni qiziqish bilan taqqosladi, ko'pchiligini topishda qiynaldi, rasm ko'rsatilib-unga xato ta'rif berilganda taqqoslab xato ekanligini aytdi	Bir guruhga mansub predmet nomlarini va u guruhga mansub bo'lmagan predmet nomini aytganimizda, o'quvchi umumlashtirishga qiynaldi. Aytilgan so'zlardan umumiylikni aniqlashda qiynaldi.	O'quvchi oldiga berilgan to'rtli hil rangdagi geometrik figuralarni klassifikatsiyalashda faqat ranglariga e'tibor qaratdi. Rasmlarda hayvonlar, mevalar, ozuqa narsalar ko'rsatilgan ularni aralashtirib klassifikatsiyalash taklif qilinganida o'quvchi qiynaldi, vaqt ko'p sarfladi
Yoshi	Analiz va sintez	Taqqoslash	Umumlashtirish	Klassifikatsiyalash
7-yoshli	Qismlarga ajratishda bir qancha xatolarga yo'l qo'ydi, mashqlarni bajarish vaqtida qiziqish bildirmadi, bo'laklardan narsa yasashda vaqt ko'p sarflandi, qarama-qarshi so'zni aytdi, rasmda nima yetishmaganligini ayta oldi.	Taqqoslash uchun berilgan topshiriqlarni qiziqish bilan taqqosladi, topishda qiynalmadi, lekin xatolar ko'p edi, rasm ko'rsatilib-unga xato ta'rif berilganda taqqoslab xato ekanligini aytdi	Bir guruhga mansub predmet nomlarini va u guruhga mansub bo'lmagan predmet nomini aytganimizda, o'quvchi umumlashtirishda qiynaldi. Aytilgan so'zlardan umumiylikni aniqlashda qiynaldi.	O'quvchi oldiga berilgan to'rtli hil rangdagi geometrik figuralarni klassifikatsiyalashda ranglariga va katta kichikligiga e'tibor qaratdi. Rasmlarda hayvonlar, mevalar, ozuqa narsalar ko'rsatilgan ularni aralashtirib klassifikatsiyalash taklif qilinganida o'quvchi qiynalmadi, biroq ko'p vaqt sarfladi

Yoshi	Analiz va sintez	Taqqoslash	Umumlashtirish	Klassifikatsiyalash
8-yoshli	Qismlarga ajratishda xatolarga yo‘l qo‘ydi, ammo to‘g‘riladi, bo‘laklardan narsa yasashda vaqt ko‘p sarfladi, ammo to‘g‘ri bajardi, qarama-qarshi so‘zni aytdi, rasmda nima yetishmaganligini ayta oldi.	Taqqoslash uchun berilgan topshiriqlarni qiziqish bilan taqqosladi, topishda qiynalmadi, lekin xatolar bor, rasm ko‘rsatilib-unga xato ta‘rif berilganda taqqoslab xato ekanligini aytdi	Bir guruhga mansub predmet nomlarini va u guruhga mansub bo‘lmagan predmet nomini aytganimizda, o‘quvchi umumlashtirishib, u predmetga kirmasligini aytdi. Aytilgan so‘zlardan umumiylikni izlashda ko‘p vaqt sarflab, takrorlab aytirib so‘ng aniqladi	O‘quvchi oldiga berilgan to‘rli hil rangdagi geometrik figuralarni klassifikatsiyalashda ranglariga va katta kichikligiga e‘tibor qaratdi. Rasmlarda hayvonlar, mevalar, ozuqa narsalar ko‘rsatilgan ularni aralashtirib klassifikatsiyalash taklif qilinganida o‘quvchi qiynalmadi, biroq ko‘p vaqt sarfladi
Yoshi	Analiz va sintez	Taqqoslash	Umumlashtirish	Klassifikatsiyalash
9-yoshli	Qismlarga ajratishda xato qilmadi, ammo ko‘p vaqt sarfladi, bo‘laklardan narsa yasashda to‘g‘ri bajardi, qarama-qarshi so‘zni aytdi, rasmda nima yetishmaganligini ayta oldi.	Taqqoslash va o‘xshashligini aniqlashda qiynalmadi, lekin xatolar bor, rasm ko‘rsatilib-unga xato ta‘rif berilganda taqqoslab xato ekanligini aytdi va to‘g‘rilab aytib berdi.	Bir guruhga mansub bo‘lmagan predmet nomlarini va u guruhga mansub bo‘lgan bir nechta predmet nomini aytganimizda, u predmetga kirmasligini va nima uchun ekanligini aytdi,	Turli xil rangdagi geometrik figuralarni klassifikatsiyalashda katta kichikligiga, geometriklik figuralariga e‘tibor qaratdi.
Yoshi	Analiz va sintez	Taqqoslash	Umumlashtirish	Klassifikatsiyalash
10-yoshli	Qismlarga ajratishda xato qilmadi, bo‘laklardan narsa yasashda to‘g‘ri bajardi, qarama-qarshi so‘zni aytdi, rasmda nima yetishmaganligini aytishda qiynalmadi.	Taqqoslash va o‘xshashligini aniqladi, rasm ko‘rsatilib-unga xato ta‘rif berilganda taqqoslab xato ekanligini aytdi va to‘g‘rilab aytib berdi.	Bir guruhga mansub bo‘lmagan predmet nomlarini va u guruhga mansub bo‘lgan bir nechta predmet nomini aytganimizda, u predmetga kirmasligini va nima uchun ekanligini aytdi,	To‘rli hil rangdagi geometrik figuralarni klassifikatsiyalashda katta kichikligiga, geometriklik figuralariga e‘tibor qaratdi.

Xulosa. Shunday qilib, maktab o‘quvchisi ta‘lim faoliyati jarayonida konkret tafakkurga ega bo‘lib boradi, ya‘ni narsa va xodisalarni tashqi tomondan bilishdan asta sekin ularning mohiyatini bilishga, muhim xususiyat va belgilarni tafakkurda aks ettirishga o‘tadi. Bu davrning yana bir muxim jihati aynan shu davrdan boshlab, ya‘ni ta‘lim faoliyatining yetakchilik roolidan foydalanib, o‘quvchilar tafakkuri va aqliy qobiliyatlarini ta‘lim jarayonida maqsadli rivojlantirish va jiddiy psixokorreksion ishlarni olib borish uchun shart-sharoitlar mavjud bo‘ladi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi «2022-2026- yillarda maktab ta‘limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-134-sonli Farmoni.
2. G‘oziev E. Umumiy psixologiya. I-II tom. – Toshkent: «Universitet», 2002.
3. Nishonova Z., Askarova N.A. va boshq. O‘quvchilarda past o‘zlashtirish diagnostikasi va psixokorreksiyasi. (uslubiy qollanma). –Toshkent: 2014.
4. G‘oziev E.G‘. Psixologiya (Yosh davrlar psixologiyasi). – Toshkent: 2002.
5. Sunnatova R.I., Karimova V.M., Tadjibaeva R.N. Mustaqil fikrlash. – Toshkent: «Sharq». 2000.